

**XIZMAT KO'RSATISH SHARTNOMASI
(LOYIHA-SMETA HUJJATLARINI TAYYORLASH BO'YICHA)**

162/22-LS-408- sonli

Samarqand sh.

“**15**” noyabr 2022 yil

Bizlar “Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati” davlat unitar korxonasi (Keyingi o'rnlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladi) nomidan 2022 yil 8-avgustdagи 47-soni buyruq asosida ish yurituvchi direktor o'rnbosari v.b K.Ximmatkulov bir tomondan va “SAM PROJEKT BUNYODKOR” mas'uliyati cheklangan jamiyatni nomidan Ustav asosida ish yurituvchi J.M.Komilov ikkinchi tomondan “Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati” DUK xarid komissiyasining 11.11.2022 yildagi 22110012177628 -sonli bayonnomasi asosida ushbu shartnomani tuzdilar.

7. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ning topshirg'i bo'yicha quyidagi loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish majburiyatini oladi: **Samarqand viloyati Kattaqurg'on tumani Bunyodkor MFYdag'i ichki yo'lini joriy ta'mirlash ishlari bo'yicha loyiha-smeta xujjatlarini ishlab chiqish belgilangan norma va qoidalariga amal qilingan holda.**

1.2. «Buyurtmachi» loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun topshiriq berish, loyiha-smeta hujjatlarini tuzish uchun zarur bo'lgan boshlang'ich ma'lumotlarni berish, bajarilgan ishlarni qabul qilib olish va ushbu shartnomaning 2 va 3 bandlarida belgilangan tartibda va miqdorda haqini to'lash majburiyatini oladi.

8. SHARTNOMA BAHOSI

2.1. Ishlarni amalga oshirishning shartnoma bahosi QQS bilan **21 300 000 (yigirma bir million uch yuz ming)** so'mni tashkil qiladi. ✓

3.TO'LOV TARTIBI

3.1. Ushbu shartnoma bo'yicha to'lov quyidagi tartibda amalga oshiriladi: «Buyurtmachi» shartnoma G'aznachilikdan ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab 10 (o'n) bank kuni ichida shartnoma bahosining 30 (o'ttiiz) foizi miqdorida avans to'lovini amalga oshiradi.

3.2. To'lov shakli: Shartnoma bilan belgilangan to'lovlar pul ko'chirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3.3. Har bir bosqichda (yoki 1-ilovada ko'rsatilgan ko'chalar) bajarilgan ishlarni qabul qilib olish va ushbu shartnomaning 2 va 3 bandlarida belgilangan tartibda va miqdorda haqini to'lash majburiyatini dalolatnomalar asosida ajratilgan avans mablag'i miqdori belgilangan foiz doirasida ushlab qolnin amalga oshiriladi.

3.4. «Buyurtmachi» ishlarni topshirish-qabul qilish oraliq dalolatnomalari imzolanganidan so'ng, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish muddatini hisobga olingan holda, manzilli dastur tasdiqlanib va moliyalashtirish ochilgandan so'ng 30 (o'ttiiz) bank kuni mobaynida «Bajaruvchi»ga haq to'lashni o'z zimmasiga oladi.

3.5. «Bajaruvchi» tomonidan bajarilgan ishlarni uchun moliyalashtiruvchi organlar tomonidan mablag' moliyalashtirilmagan taqdirda «Buyurtmachi» to'lovnini amalga oshira olmaydi va to'lov kechiktirilishi uchun javobgar bo'lmaydi.

3.6. Ishlarni qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

- ishlarni qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) xolatlari sabab bo'lganda;

- ishlarni xajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;

4. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

4.1. «Bajaruvchi» loyiha-smeta hujjatlarida kamchiliklarni uchun, shu jumladan, keyinchalik qurilish jarayonida, shumindek tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlarini ma'lumotlari asosida barpo etilgan ob'ektdan foydalishin jarayonida aniqlangan kamchiliklarni uchun javobgardir.

4.2. «Bajaruvchi» ishlarni dastlabki ma'lumotlar va kelishilgan grafik asosida vaqtida bajarishni, «Buyurtmachi» bilan bajariladigan ishlarning (bosqichlarning) natijalarini kelishishni o'z zimmasiga oladi.

4.3. «Buyurtmachi» ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar va materiallarni «Bajaruvchi»ga taqdim qiladi.

4.4. «Buyurtmachi» shartnomada ko'zda tutilgan shartlar va tartiblar asosida to'lovnini amalga oshirish, ishlarning shartnomada ko'rsatilgan hajm va shartlarga muvofiq bajarilishida «Bajaruvchi»ga yordam ko'rsatish, bajarilgan ishlardan shartnomada ko'zda tutilgan maqsadlarda foydalishin, «Bajaruvchi»ning roziligidisiz shartnoma bo'yicha bajarilgan ishlarni uchinchi shaxsga bermaslik va undagi ma'lumotlarni tarqatmaslikni o'z zimmasiga oladi.

4.5. «Buyurtmachi» tomonidan avans to'lovlari o'z vaqtida o'tkazilgan holda yoki ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar va materiallarni «Bajaruvchi»ning talabiga asosan taqdim etmaganida ishlarni boshlash va tugallash muddati ham avans to'lovi va ma'lumotlar berilishi kechiktirilgan vaqtga qadar uzaytiriladi.

4.6. Ushbu shartnoma bo'yicha «Bajaruvchi» o'z majburiyatlarini sifatsiz bajarsa, kelishilgan qo'shimcha muddatda, talab qilingan sifat darajasida o'z hisobidan qaytadan bajaradi.

4.7. «Bajaruvchi» tomonidan loyiha-smeta hujjatlarini «Buyurtmachi»ga topshirgandan so'ng, qurilish ishlarni boshlangan davrdan boshlab qurilish tugallangunga qadar mualliflik nazoratini tashkil etish va mualliflik daftarchani belgilangan normalar asosida olib borish majburiyati yuklatiladi.

5. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Loyerha-smeta hujjatlarida kamchiliklarni aniqlangan taqdirda, «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ning talabi bilan loyiha-smeta hujjatlarini bepul qayta ishlab chiqishi va buning natijasida keltirilgan zararni to'lashi shart.

5.2. «Bajaruvchi» loyiha-smeta hujjatlarini tuzish jarayonida belgilangan SHNQ va QMQ rioya qilgan holda bajarishni va keyinchalik loyiha-smeta hujjatlaridan kelib chiqqan kamchiliklarni yoki «Bajaruvchi» xatosi bilan ko'zga tutilgan qo'shimcha ishlarni va xarajatlar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Kelib chiqqan qo'shimcha xarajatlar «Bajaruvchi» tomonidan to'lanadi.

5.3. «Bajaruvchi» o'z hohishi bilan yoki boshqa uchinchi shaxslar tomonidan «Buyurtmachi»ning roziligidisiz loyiha-smeta hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilsa, barcha bo'paygan to'lovlarni o'z hisobidan to'lashi va kelib chiqqan muammolar uchun amaldagi qonunchilikka asosan o'zi javobgar bo'ladi.

5.4. «Bajaruvchi» loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish davomida texnik shartlar, arxitektura rejalashtirish to'plami (APZ), geologik xulosa va ekspertiza uchun to'lovlarni amalga oshiradi.

5.5. Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilgan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonun xujjatlariga muvofiq belgilanadi.

6. ISHLARNI TOPSHIRISH VA QABUL QILISH TARTIBI VA MUDDATLARI

6.1. Mazkur loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish shartnoma tomonlar imzolanganidan so'ng G'aznachilikda ro'yxatga olingan kundan boshlanadi. Shartnoma ro'yxatga olingan kundan boshlab **10 kun** ichida «Bajaruvchi» tomonidan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqilib, ushbu hujjatlar va ekspertriza xulosasining asl nusxasi hamda elektron varianti bilan «Buyurtmachi»ga taqdim qilinishi lozim.

6.2. «Bajaruvchi» ushbu shartnomaning 1.1 va 6.1-bandlarida nazarda tutilgan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish ishlarni «Buyurtmachi» bergan topshiriqda belgilangan muddatlarda bajaradi.

6.3. Ishlarni tugagandan so'ng «Bajaruvchi» «Buyurtmachi» ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasi bilan topshiradi.

6.4. «Buyurtmachi» ishlarni qabul qilmasligining asosli rad javobini bergen taqdirda, amalga oshirilishi zarur bo'lgan qo'shimcha ishlarning ro'yxati va ularning bajarilish muddatlarini ko'rsatgan holda ikki tomonlama dalolatnomasi tuziladi.

6.5. Agar ishlarni bajarish jarayonida uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, tomonlar 5 kun muddat ichida uni to'xtatish to'g'risida bir-birini xabardor qilishi va 15 kun ichida ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi shart. Ishlarning to'xtatilishi tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ko'zda tutilgan oqibatlari va javobgarlikka olib keladi.

6.6. Agarda shartnoma G'aznachilikda ro'yxatga olingan kundan boshlab 20 kun ichida «Bajaruvchi» tomonidan ushbu shartnomaning 6.1-bandida ko'rsatilgan ishlarni bajarilinagan taqdirda, «Buyurtmachi» kamida 5 (bes) kun oldin «Bajaruvchi»ni habardor qilgan holda shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.

6.7. Tomonlardan biri mazkur shartnomada ko'zda tutilgan ishlarni to'xtatish to'g'risida yozma xabar bergen vaqt o'zaro hisob-kitob qilish vaqtini hisoblanadi.

6.8. Lozim topilgan hollarda tomonlar xolis ekspertlarga Loyerha bo'yicha xulosa uchun murojaat qilishi yoki qabul komissiyasi tashkil qilishi mumkin.



7. KONFIDENSIAL MA'LUMOTLARNI HIMOYALASH

7.1. Ishlar bajarilishi davrida «Bajaruvechi» konfidensial hisoblanadigan ma'lumotlar ishlab chiqqan yoki ularni «Buyurtmachi»dan olgan hollarda ularni himoyalash, oshkor bo'lishini oldini olish maqsadida tegishli tadbir va choralar ko'radi.

8. YENGIB BO'L MAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) HOLATLARI

8.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'l maydigan tabiiy falokatlar natijsasida kelib chiqsa va agar ushbu holatlар mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarish muddati yengib bo'l maydigan tabiiy kuchlar amal qilgan, shuningdek ushbu holatlар ro'y bergan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

8.2. Agar yengib bo'l maydigan tabiiy kuchlar yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda «Buyurtmachi» va «Bajaruvechi» ishlarni davom ettirish yoki ularni to'xtatish uchun qanday choralar ko'rlishini muhokama qiladilar.

8.3. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

9. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SHARTLARI

9.1. Tomonlar amaldagi korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi qonun hujjatlariga rioya qilish va ushbu shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlar bilan bog'liq holda korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi qonun hujjatlarini buzadigan har qanday harakatlarni amalga oshimaslik, shu jumladan noqonuniy to'lovlar taklif qilmaslik, bunday to'lovlariga ruxsat bermaslik, va'da qilmaslik, shuningdek har qanday jismoni yoki yuridik shaxslarga, shu jumladan (lekin ular bilan cheklanmagan holda) tijorat tashkilotlariga, davlat va o'zini o'zi boshqarish organlariga, davlat xizmatchilariga, xususiy kompaniyalarga va ularning vakillariga naqd pul yoki boshqa shaklda (lekin cheklanmagan holda) pora bermaslik va pora talab qilmaslik hamda qonunga xilof boshqa xatti-harakatlar sodir etmaslik majburiyatini oladilar.

9.2. Tomonlardan biri ushbu bandda ko'rsatilgan majburiyatlarini buzgan taqdirda, boshqa tomon bir tomonlama va sudgacha bo'lgan tartibda ushbu shartnomanini bajarishni rad etishga haqli. Ushbu bandga muvofiq shartnoma bekor qilingan taqdirda tomonlar bir-birlariga kompensatsiya to'lamaydilar.

10. QO'SHIMCHA SHARTLAR

10.1. «Bajaruvechi» loyihami muddatidan oldin bajargan holda «Buyurtmachi» uni mazkur shartnomaning 6-bo'limga asosan qabul qiladi va shartnomaning 3-bo'limga belgilangan tartibda to'lovi amalga oshiradi.

10.2. O'zaro muloqat yo'li bilan hal qilinmagan muammolar qonunda belgilangan tartibda hal qilinadi.

10.3. Shartnomaga tomonlar roziligi asosida, yozma ravishda o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

10.4. «Bajaruvechi» mazkur shartnomada ko'rsatilgan ishlarni bajarish vaqtida o'z imkoniyatlarinden kelib chiqib, «Buyurtmachi»ni xabardor qilinagan holda uchinchilashxmaslari, jumladan yuridik va jismoniay shaxslarni mustaqil ravishda jalb qilish huquqiga ega.

10.5. Mazkur shartnomaning shartlari shartnoma predmeti bo'yicha taraflaming shartnoma tuzishidan oldin vujudga kelgan munosabatlarga va «Bajaruvechi»ning ob'ekt bo'yicha bajargan ishlariiga nisbatan qo'llaniladi.

10.6. Mazkur shartnoma amal qilish davomida yuzaga keladigan tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar tomonlar tarafidan o'zaro muzokara yo'li bilan 5 (besh) kunlik muddatda hal etiladi.

Belgilangan muddatda kelishuvga kelinmagan taqdirda tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar Samarqand shaxar iktisodiy sudiida da'vo ariza kiritish yo'li bilan ko'rib chiqiladi.

10.7. «Buyurtmachi» tomonidan dastlabki to'lov va ishlarni topshirganda shartlashilgan to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun 0,4 foizi miqdorida penya to'lanadi, bunda penyaning umumiyligi summasi shartnoma narxining 50 (ellik) foizidan oshmasligi lozim. Investorni aybi bilan moliyalashtirish kechikkan hollar bundan mustasno.

10.8. «Bajaruvechi» tomonidan bajarilgan ishlarni yoki ko'rsatilgan xizmatlar muddati kechiktirilganda «Buyurtmachi»ga muddati o'tkazib yuborilgan xar bir kun uchun bajarilmagan ishlarni qiymatining 0,4 foizi miqdorida penya to'lanadi, biroq bunda penyaning umumiyligi summasi bajarilmagan ishlarni qiymatining 50 (ellik) foizidan oshmasligi lozim.

10.9. Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga, xususian O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy – huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq belgilanadi.

10.10. To'langan penya yoki jarimalar tomonlarni ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

10.11. Mazkur shartnoma tomonlar imzolagandan va g'aznachilik bo'limgidan ro'yxatdan o'tganidan so'ng xukukiy kuchga kiradi.

10.12. Mazkur shartnomaning amal qilish muddatti 2022 yil 31-dekabrgacha.

10.13. Ushbu shartnoma o'zbek tilida uch musxada fu'zildi va bir xil yuridik kuchga ega.

TOMONLARNING MANZILI VA HISOB RAQAMLARI

"BUYURTMACHI"

Nomi: "Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati"

DUK

Manzili: Samarqand sh. A.Nabihev ko'chasi 3-uy

Bank: Samarqand sh. AKIB "Ipoteka bank"

L/s: 301821860184017045204118049

STIR: 207254149

MFO: 00312

OKED:70220

Direktor: o'rnatbosariy.v.y.

K.Ximmatkulov

Mazkur shartnoma 29.08.1996-yilda "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunning 21-moddasiga asosan huquqiy ekspertizadan o'tkazildi. Shartnomani muvofiq belgilangan shaxs shaxslik tabablariiga rioya qilingan holda tuzilgan. Ushbu huquqiy ekspertiza shartnomadagi narxlarning shakllantirilishiga nisbatan tadbiq etilinadi.

Yurist:

Moliya vaziriga yozilgan surʼati: O/X: 234020003000100001010
Bank nomi: Markaziy Bank XKKM Toshkent shaxar boshqarmasi
Manzili: Samarqand shaxari Kuksaroy maydoni №1
STIR (INN): 021122919 MFO 00014 OKED:97160
Tel 2335853, 231-11-52

"BAJARUVCHI"

Nomi: "SAM PROJEKT BUNYODKOR" MCHJ

Manzili: Samarqand sh. A.Nabihev ko'chasi 3-uy

Bank nomi: AT "Xalq bank" Samarand filiali

X/R: 20 208 000 605 108 999 001

MFO: 01005

STIR: 306 627 639

OKNX: 96130

Tel: 93 725 66 50

Direktor:

J.M.Komilov

Yurist:

SAM PROJECT
BUNYODKOR